

## O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy orkestrining bayramona dasturi

Hozirgi kunda Milliy armiyamiz jamiyatimizning ajralmas qismiga aylangan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, Milliy armiya kelajagimiz bo'lgan o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning qalbida mamlakatimiz farovonligini mustahkamlash va saqlash kabi fazilatlarni oshirishga xizmat qilmoqda.



Shu munosabat bilan, 2018-yil 20-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida bo'lib o'tayotgan "Fan va ta'limni rivojlantirishda yoshlarning o'rni" mavzusidagi Respublika yosh olimlar konferensiyasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi harbiy orkestri o'zining "Vatan - muqaddas, uni himoya qilish sharaflidir" shiori ostiga bayramona dasturi bilan ishtirok etdi. Bu esa konferensiya ishtirokchilarining, yosh olimlarning ilm-fanga bo'lgan ishtiyoqi, vatanga, xalqimizga mehr-muhabbatini, istiqlol g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini yanada oshirib, ularga kuch-quvvat, g'ayrat hamda ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi. Ushbu musiqali dastur harbiy musiqa olamidagi jozibali kuy-qo'shiqlardan bahra olish imkoniyatini berdi.

